


**JG'MXO QARSHI SERJANTLAR TAYYORLASH MAKTABI**



**TOG'LI XUDUDLARDA HARAKATLANGANDA**

**XAVFSIZLIK CHORALARI**

Tog'lar er yuzi hududining 40% ni egallab, er yuzasidagi ulkan hududlarni tashkil etadi. Tog' tayyorgarligining ahamiyati va mazmunini e'tiborga olgan holda shuni bilish kerakki, tog'dagi jangovar amaliyotlar ko'p hollarda harbiylarning jismoniy holati va ma'naviy tayyorgarligiga chambar-chas bog'liqdir. Tog' bo'linmasi komandiri va har bir jangchining bilim darajasi va tajribasi tog' relefini dadil oshib o'tishi tog' sharoitlarida vaziyatni to'g'ri baholashiga bog'liqdir. Mahalliy tekislik hududlarini tog' hududlaridan farqlirog'i shundaki, tog' hududlaridan oshib o'tish murakkab va kiyinroqdir.

Bizning davlat chegaramiz dengiz satxidan, balandligi 3000 metrdan 5000 m gacha bo'lgan tog' tizmalaridan tashkil topgan.

Tog'lardagi olib boriladigan janglar tekislikdagi olib boriladigan janglardan ancha farq qiladi. Jangovar texnikalarning harakatlanishi uchun yaxshi va ravon yo'llarning yo'qligi, shuningdek yomon ob-havo sharoitlari qo'shinlarning harakatlanishini ancha qiyinlashtiradi.

Tabiiyki qo'shinlarning harakatlanish yo'llarida tik, toshli, o't-o'lanli, muzli va qorli qiyaliklar, shuningdek jo'shqin tog' daryolari ham tez-tez uchrab turadi. Tog'da qo'shinlarga tosh to'kilmalari, sellar, qor va muz ko'chkilari xavf tug'diradilar. Tog' releflaridan o'tishda xavfsizlik choralari qat'iy rioya qilishi, har bir muayyan holatda mazkur to'xtash shart - sharoitlari uchun eng ishonchli va qulay bo'lgan xavfsizlikni taminlash usuli tanlanishi xavfsizlikni taminlash va o'z xavfsizligini o'zi taminlash uchun tanlangan tayanch sinab ko'rishi shuningdek harbiy xizmatchilarga og'irlik darajasi har xil bo'lgan tog' to'siqlaridan oshib o'tishning eng oqilona texnikasini, o'z xavfsizligini o'zi taminlash va xavfsizlikni taminlash usullarini, anjomlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

## **TOG‘ RELEFLARIDA HARAKATLANGANDA XAVFSIZLIK CHORATADBIRLARIGA RIOYA QILISH VA TASHKILLASHTIRISH**

Maxsus va tog‘ qo‘shinlarining o‘quv va jangovar faoliyati tog‘ tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Harbiy xizmatchilar tog‘ to‘siqlarini oshib o‘tishda turli xil xavfli qiyinchiliklarga duch kelshadi. Harbiy xizmatchilar xavfsizlik choralari yaxshi bilishi ushbu havfli qiyinchiliklarni oldini oladi. Tog‘li hududlarga jangovar harakatlar olib borish uchun kelganda tajribali komandir o‘z shaxsiy tarkibiga tog‘ to‘siqlarini oshib o‘tish va xavfsizlik choralari ,qoidalarini batafsil o‘rgatgan bo‘lishi kerak.

SHuning uchun tog‘ to‘siqlaridan oshib o‘tishda xavfsizlikni ta‘minlash birinchi navbatda komandirga bog‘liqdir.

### **Xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy qoidalari**

1. Xavfsizlikni ta‘minlash tushib ketish va yiqilish xavfi bo‘lgan joylarda tashkil etiladi.
2. Xavfsizlikni ta‘minlash va o‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlashni tashkil etishda hech qanday shartlilikka yo‘l qo‘yilmasligi lozim.
3. Har bir muayyan holatda mazkur to‘xtash shart-sharoitlari uchun eng ishonchli va qulay bo‘lgan xavfsizlikni ta‘minlash usuli tanlanishi kerak.
4. O‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlashni tashkil etmay turib hamrohning xavfsizligini ta‘minlash mumkin emas.
5. Xavfsizlikni ta‘minlovchi muvofiq ravishda kiyingan bo‘lishi kerak.
6. Xavfsizlikni ta‘minlash va o‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlash uchun tanlangan tayanch nuqtasi sinab ko‘rilishi lozim.
7. Xavfsizlikni ta‘minlovchi zarur holda arqonni uzatish uchun qo‘lida hamisha kerakli arqon qo‘shimchasini saqlashi kerak. Arqonning qattiq tortilishi sodir bo‘lgan taqdirda xavfsizlikni ta‘minlovchi uni to‘xtatishni (siqib olishni) asta sekin kuchaytirishi lozim.
8. Xavfsizlikni ta‘minlovchi xavfsiz joyga chiqqani va o‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlagani haqida signal bermagunicha xavfsizlik arqonini echmaslik kerak.
9. Xavfsizlikni ta‘minlash uchun tayanchni tanlash va xavfsizlikni ta‘minlovchining to‘g‘ri holati tortilish yo‘nalishidan kelib chiqib aniqlanishi lozim.

10. Ko‘lni tayanch sifatida pastga osiltirib turmaslik kerak: arqon qo‘qqisidan qattiq tortilganida barmoqlar shikastlanishi mumkin.

### **Arqonni o‘tirgan holatda beldan o‘tkazib xavfsizlikni ta‘minlash**

O‘tirib oyoq bilan yaxshilab tiranish mumkin bo‘lgan maydoncha topilgan joylarda yuqoridan turib xavfsizlikni ta‘minlashda qo‘llaniladi. O‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlash sof ko‘rinishda qo‘llanishi shart, arqonni o‘tirgan holatda beldan o‘tkazib xavfsizlikni ta‘minlash deyarli ishlatilmaydi, chunki arqon xavfsizlikni ta‘minlovchidan pastga bo‘rtiq orqali ketadi. Quyidagi usulda tashkil etiladi: xavfsizlikni ta‘minlovchi tortish yo‘nalishini aniqlaydi, butun bo‘sh arqonni yig‘ib oladi va oyoqlarini elkadan sal kengroq ochib, tovonlarini yaxshilab tirab o‘tiradi. Arqon elkadan tushirilib oyoqlar o‘rtasidan, mahkam tayanchga ega bo‘lgan oyoq yaqinidan o‘tkazilishi lozim. Elkadan pastda arqon beldan o‘tkazildi. YArim bukilgan, tirsaklari tanaga jipslashtirilgan yo‘llarda arqon ushlanadi.

Arqonni yig‘ib olishda arqonning bo‘sh uchidan tutgan qo‘l uni o‘zidan oldinga tortadi. Arqonning asosiy uchi narigi qo‘l kaftidan sirpanib o‘tadi. So‘ng bu qo‘l bilan arqonning ikkala uchi qisib olinadi. Bo‘shagan qo‘l bo‘sh arqonni gavda yaqinida tutib oladi. Harakatlar takrorlanadi.

Hamroxi tushib ketganida xavfsizlikni ta‘minlovchi arqonni mahkam ushlashi va tirsaklarini tanaga jipslashtirib, qo‘llarini oldinga cho‘zib tanaga arqonning o‘ralishini kuchaytirishi lozim. (1- rasm)



## 1-rasm. Arqonni o'tirgan holatda beldan o'tkazib xavfsizlikni ta'minlash


Xavfsiz maydoncha tanlanadi, tortish yo'nalishi aniqlanadi, o'z xavfsizligini o'zi ta'minlash tashkil etiladi. Ortiqcha arqon yig'ib olinadi. Oyoq tortish yo'nalishida «ochiq holat»da (tog' yonbag'riga orqa o'girib) bo'rtiqqa mahkam tiraladi. So'ng arqon boshdan o'tkazib bo'yin ortiga tashlanadi va asosiy uchi elkadan qo'l ostiga tushiriladi. Tirsagi tanaga jiplashtirilgan va to'g'ri burchak ostida bukilgan narigi qo'l tanada tortilgan arqonni ushlaydi. Ishqalanishni kuchaytirish uchun arqonning asosiy uchini qo'l atrofidan yana aylantirib o'rash mumkin.

Xavfsizlikni ta'minlovchi tortish yo'nalishiga yon tomoni bilan turadi, tik oyog'i yaxshi tayanchga ega bo'ladi, tanasi u bilan bitta chiziqda, tortish yo'nalishidan qarama-qarshi tomonga qiya holatda turadi. Tananing asosiy kuchi yarim bukilgan narigi oyoqqa tashlanadi. Oyoqlar elkadan keng oraliqda ochiladi.

Arqonni yig'ib olishda arqonning bo'sh uchidan tutgan qo'l tirsakdan bukilgan va tanaga jiplashtirilgan bo'ladi, panjalar arqonni siqib oladi. Narigi qo'l oldinga cho'zilgan holatda arqonning asosiy uchidan tutadi, tirsakdan bukilgan va tanaga jiplashtirilgan bo'ladi, panjalar arqonni siqib oladi. «Bo'sh» qo'l rostlanganida arqon tana bo'ylab tortilib, «asosiy» qo'l kaftida erkin sirpanadi. So'ng «asosiy» qo'l arqonni mahkam siqib oladi, «bo'sh» qo'l esa undan tez sirpanib boshlang'ich holatga qaytadi. Usul takrorlanadi.

Arqonni uzatishda «bo'sh» qo'l tirsakdan bukilib, gavgaga jiplashtirilgan bo'ladi. «Asosiy» qo'l arqondan ko'krakning yuqori qismiga qarab sirpanadi, so'ng rostlanib arqonni uzatadi. «Bo'sh» qo'l panjalari yoziladi va arqon kaftida sirpanadi. Harakat takrorlanadi.

Hamroxi tushib ketganida xavfsizlikni ta'minlovchi arqonni qo'lida mahkam siqib oladi va tortish joyidan nariga siljiydi. Tik qo'yilgan oyoq tayanchi kuchayadi, narigi oyoq esa yanada qattiqroq bukiladi. Arqon pastdan turib tortilsa, u biroz bo'shatiladi va asta sekin qo'lda siqib olinadi. (2-rasm)



## **2-rasm. Turgan holatda arqonda xavfsizlikni ta'minlash**

Eng ko'p qo'llaniladigan xavfsizlikni ta'minlash usuli. Bunda bo'rtiq ishonchli, ya'ni mustahkam, asosiy massivdan ajralmagan bo'lishi muhimdir. hamisha bo'rtiqning butunligini ko'zdan kechirib, qo'l bilan bosib yoki bolg'a bilan urib tekshirib ko'rish lozim. Bo'rtiqdan zirillagan tovush chiqsa, demak tosh darz ketgan. Bo'rtiqning mustahkamligiga ishonch hosil qilinganidan va zarur holda unga bolg'a bilan ishlov berilganidan (o'tkir qirralari, burchaklari, chetlari tekislanganidan) so'ng undan asosiy arqonni o'tkazib tashlash mumkin. SHu bo'rtiq orqali o'z xavfsizligini o'zi ta'minlashni tashkil etish ham mumkin. Asosiy arqon bo'rtiqdan o'tkazib tashlanadi va xavfsizligi ta'minlanayotgan odamdan bo'rtiqning bir tomonidan yoki arqonni bo'rtiqning ikkala tomonida ushlab turgan qo'llar bilan yig'ib olinadi. Gavda holati tik, bir oyoq oldinga tashlangan va tayangan holatda. Arqonni ushlab paytida qo'llar nim bukiladi. Bo'rtiqning bir tomonidan arqonni yig'ib olish oddiy tortish, ya'ni arqonni qo'lda navbatma-navbat tortib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Qo'llar bo'rtiqning ikki tomonida turgan bo'lsa, arqon har bir qo'lda navbatma-navbat tortiladi, ammo orqaga qo'l arqondan sirpanib qaytadi. Arqonni uzatishda arqon xavfsizlikni ta'minlovchining kaftlarida (qo'lqoplarida) erkin sirpanadi. Qamrov burchagi kichkina bo'lgan bo'rtiq orqali xavfsizlikni ta'minlashda arqon bo'rtiqning ikkala tomonidan ushlanadi. Arqonni uzatish va yig'ib olish arqonni beldan o'tkazib xavfsizlikni ta'minlashdagi singari amalga oshiriladi.(3-rasm)

## **3-rasm. Bo'rtiq orqali arqondan xavfsizlikni ta'minlash**

**Boshqa xavfsizlikni ta'minlash usulini qo'llash mumkin bo'lmagan joylarda xavfsizlikni ta'minlash.**



O‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlash qayrilma qoziq, karabin orqali tashkil etiladi. Xavfsizlikni ta‘minlash uchun qayrilma qoziqlar, karabin bilan birga qo‘llanadi. Karabin, qayrilma qoziq arqonining ilmog‘i o‘tkaziladi. Karabin qayrilma qoziqda tor qismi bilan, qulfi tepaga qarab bo‘sh osilib turishi lozim. Arqon o‘tkazilganidan so‘ng karabin qulfining muftasi buraladi. Kayrilma qoziq holati noqulay bo‘lgan taqdirda ba‘zan bo‘rtiq orqali xavfsizlikni ta‘minlash usulidagi singari ushlanadi. Arqonni yig‘ib olish va uzatish ham o‘sha usuldagi bilan bir xil.

O‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlash yonma-yon, ammo, imkoniyat bo‘lsa, boshqa teshikka qoqilgan ikkinchi qayrilma qoziq orqali amalga oshiriladi. Xavfsizlikni ta‘minlash va o‘z xavfsizligini o‘zi ta‘minlash uchun bitta qayrilma qoziqdan imkon qadar kam foydalanish va bunday hollarda qo‘shimcha karabin osib qo‘yish kerak. Ba‘zan qayrilma qoziq o‘rniga muzo‘yardan o‘tkazib tashlangan ilmoqdan foydalanish lozim.(4-rasm).

**4-rasm. Muzo‘yar bolta yordamida  
xavfsizlikni ta‘minlash**



**Xavfsizlikni ta‘minlashning kombinatsiyali usuli**

Xavfsizlikni ta‘minlashning ikki yoki undan ortiq usulini birlashtiradi. Ko‘pgina xavfsizlikni ta‘minlash usullari sof ko‘rinishda kamdankam qo‘llanadi. Xavfsizlikni ta‘minlashning kombinatsiyali usulida ishqalanish kuchi ancha ortadi, chunki asosiy og‘irlik bo‘rtiqqa yoki maydoncha qirrasiga tushadi, xavfsizlikni ta‘minlovchi ko‘proq muvozanat saqlaydi.

Arqon asosiy xavfsizlikni ta'minlash vositasi. Arqonni tanlashda uning pishiqligini, og'irligini, qalinligini, qayishqoqligini va xizmat muddatini e'tiborga olish lozim. Arqonni ehtiyotlash, uni muntazam ko'zdan kechirib turish va eng mayda nuqsonlarni ham vaqtida bartaraf etish kerak. O'ramdan qirqib olingan arqondan foydalanishdan oldin uning ikki uchini kuydirish, arqon bilan ishlash qulay bo'lishi uchun uning o'rtasidan (uchdan bir qismidan) boshlab rangli iplar yoki o'chmaydigan bo'yoq bilan belgilash kerak.

Arqon olib yurish usullariga va qulay foydalanish talablariga qarab o'raladi. Arqonni elkada, qo'lتيقدan o'tkazib yoki ryukzakda olib yurish mumkin. Ryukzaksiz harakatlenganda arqon elkada va qo'lتيقدan o'tkazib olib yuriladi. Arqonni olib yurish uchun quyidagicha o'raladi: arqonning bir uchidan ushlab, kift va bo'yindan, tovon va tizzadan o'tkazib, qo'lda osiltirib, qorga sanchilgan ikki muzo'yar bolta atrofidan, oldinda turgan safdosh atrofidan aylantirib o'raladi. Arqonni shunday o'ragach, uning bir uchi ilmoq qilib tugiladi va o'ramning bir tomoniga qo'yiladi, ikkinchi uchi bu ilmoq bilan o'ram ustidan 4-6 marta aylantirib o'raladi va ilmoqning teshigidan o'tkazib bog'lanadi. Arqonni shu turishda ikkiga ajratib va yuk qopi singari osib elkada yoki qo'lتيقدan o'tkazib olib yurish mumkin. Arqonni shu ko'rinishda yuk qopi qayishlaridan o'tkazib osib olish yoki yuk qopi ichiga solish mumkin. YOrdamchi arqonning uchlari yuqorida ko'rsatilgan usulda yoki kift va tirsakdan o'tkazib o'raladi, yuqorida ko'rsatilgan usulda belgilanadi, arqonning uchi kalta (4,5 metr-gacha) bo'lsa, suv o'tkazmaydigan kostyum cho'ntagida yoki belbog' karabinida osib yuriladi.

Arqondan foydalanishda tugun tugishni bilish kerak. Tugunni tez va bexato tugish, ularning afzal tomonlari va kamchiliklarini, shuningdek qaerda va qanday holatlarda foydalanish kerakligini bilish lozim. Tugunlar vazifasi jihatidan quyidagi guruxlarga bo'linadi:

- asosiy tugunlar;
- maxsus tugunlar;
- yordamchi tugunlar;


### **Asosiy tugunlar**

Asosiy tugunlar diametri bir xil bo'lgan arqonlarni bir-biriga bog'lash uchun mo'ljallangan.



Bularga:



«TO‘G‘RI», «TO‘QIMA» va «QARAMA-QARSHI» tugunlari kiradi.



To'g'ri tugun




qarama – qarshi tugun

### 5-rasm. Asosiy tugunlar guruhi


Maxsus tugunlar

Maxsus tugunlar diametri xar xil bo‘lgan arqonlarni bir-biriga bog‘lash uchun mo‘ljallangan.


«SHKOT», «BROM-SHKOT » va «AKADEMIK» tugunlar kiradi.



Chkot tuguni



brom chkot tuguni



Akademik tuguni

## 6-rasm. Maxsus tugunlar guruhi

### YORDAMCHI TUGUNLAR

**Xavfsizlikni ta'minlashda yordamchi vazifalarda ishlatiladi.**


«YO'L BOSHLOVCHI», «SAKKIZ», «BULIN», «QISUVCHI», «BAXMANA», «UZANGI», «BUG'UVCHI», «KURMAK», «SIQUVCHI», «PURSIK», «YUQORI» va «PASTKI» xavfsizlik xalqalari.



Yo'l boshlovchi tugun




bulin tuguni




Qisuvchi tugun



Uzangi tuguni



Sakkizlik tuguni



Siguvchi tuguni

Muallif: Tog' tayyorgarlik sikli o'qituvchisi podpolkovnik G' .Ro'ziyev

29.06.2017y.



